

**O`ZBEKNING O`ZLIGNI IZLAB: MATYOQUB QO`SHJONOV
TAHLILIDAGI QODIRIY SEHRI**

Farg`ona davlat universiteti

Filologiya fakulteti o`zbek tili yo`nalishi

IV bosqich talabasi

Sharobiddinova Rayhonoy

Annotatsiya : *Ushbu maqolada o`zbek adaiyotshunosligining yirik vakili, akademik Matyoqub Qo`shjonovning Abdulla Qodiriy ijodini tadqiq etishdagi betakror mahorati va ilmiy jasorati yoritilgan. Munaqqidning Qodiriy romonidagi milliy xarakter, o`zbekning o`zligi va badiiy ruhiyat tasviri ochib berishdagi o`ziga xos yondashuvi tahlil qilingan. Maqolada Qo`shjonov talqinidagi Qodiriy qahramonlarining yangicha qirralari ,xususan, "O`tgan kunlar " va "Mehrobdan chayon " romonlarining estetik jozibasi hamda olimning qodiriyshunoslik maktabini yaratishdagi xizmatlari dalillangan.*

Kalit so`zlar: *Matyoqub Qo`shjonov, Abdulla Qodiriy, adabiy tanqid, Qodiriyshunoslik, milliy o`zlik, badiiy tahlil, ruhiyat tasviri, munaqqid mahorati , "O`tgan kunlar " , estetik ideal.*

Abstract: *This article highlights the unique skill and scholarly courage of Academician Matyoqub Qo`shjonov, a prominent figure in Uzbek literary studies, in researching the works of Abdulla Qodiriy. It analyzes the critic's distinctive approach to revealing the national character, Uzbek identity, and the depiction of artistic psychology in Qodiriy's novels. The article substantiates new facets of Qodiriy's characters as interpreted by Qo`shjonov, specifically the aesthetic appeal of the novels "Bygone day " and "Scorpion from the Altar," as well as the scholar's contributions to establishing the school of Qodiriy studies.*

Keywords: *Matyoqub Qo`shjonov, Abdulla Qodiriy , literary criticism, Qodiriy studies, national identity, artistic analysis, depiction of psychology, critic's*

skill, "Bygone days ," aesthetic ideal.

***Аннотация:** В данной статье освещаются уникальное мастерство и научная смелость крупного представителя узбекского литературоведения, академика Матёкуба Кошжанова в исследовании творчества Абдуллы Кадыри. Анализируется своеобразный подход критика к раскрытию национального характера, узбекской самобытности и изображения художественного психологизма в романах Кадыри. В статье обоснованы новые грани героев Кадыри в интерпретации Кошжанова, в частности, эстетическое очарование романов «Минувшие дни» и «Скорпион из алтаря», а также заслуги ученого в создании школы кадыриведения.*

***Ключевые слова:** Матёкуб Кошжанов, Абдулла Кадыри, литературная критика, кадыриведение, национальная идентичность, художественный анализ, изображение психологии, мастерство критика, «Минувшие дни», эстетический идеал.*

Kirish.

O'zbek adabiyotshunosligi tarixida adabiy jarayonni chuqur ilmiy asosda tadqiq etgan va milliy tanqidchilikning nazariy yo'nalishlarini tamomila yangi bosqichga ko'targan zargarchasiga ishlov beruvchi olimlar qatorida akademik Matyoqub Qo'shjonov alohida o'rin tutadi. Olim o'z faoliyati davomida adabiy tanqidni shunchaki asarni baholash vositasi deb emas, balki badiiy fikrning ildizlarini ochuvchi murakkab ilmiy tahlil jarayoni sifatida belgiladi. Shu sababli ham, uning 40 dan ortiq monografiya va tadqiqotlari o'zbek tanqidchiligi metodologiyasining shakllanishida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qildi. Munaqqid ijodiy faoliyatining o'zagi, shubhasiz, Abdulla Qodiriy olamini anglash va anglatishga qaratilgan. Ayniqsa, olimning "Abdulla Qodiriyning tasvirlash san'ati" asari "O'tkan kunlar" romaniga yangicha hayot bag'ishlab, asardagi nozik san'at qirralarini ochib berdi.¹ Qo'shjonov Qodiriy uslubiga xos

¹ G'aniyev, A. O'zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: Universitet, 2001.

bo'lgan, biroq ungacha hech kim chuqur ilg'amagan "voqealarni sirli bayon etish" mahoratini hamda xarakterlarning shakllanish jarayonidagi "sir saqlash" san'atini birinchilardan bo'lib ilmiy asoslab berdi. Bu yondashuv, ayniqsa, asarning bosh qahramonlari – Otabek va Kumushbibi obrazlari tahlilida yaqqol namoyon bo'ladi. Olimning fikricha, yozuvchi mahoratini belgilovchi asosiy omil bu – qahramonlar ruhiyati orqali asar g'oyasini ifodalashdir. Shuning uchun ham u: "Romanning bosh g'oyasi asosan yetakchi obrazlarda ifodalangani uchun bu obrazlarning yaratilishi to'g'risida ko'proq to'xtash foydalidir", – deya ta'kidlaydi. Adabiy tanqid ham ixtiro qiladi, ixtiro qilingan talantlarni ardoqlaydi", degan tamoyilga sodiq qolgan akademik, o'zbek adabiy tafakkurining rivojiga beqiyos hissa qo'shdi.² Mazkur maqolada ham aynan ushbu metodologik yondashuvlar tahlil qilinib, Qodiriy romanlari orqali o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasi va "o'zlik" konsepsiyasi qay darajada mahorat bilan ochib berilgani dalillanadi. Munaqqidning Qodiriy romanlari tahlili orqali o'zbek xalqining ma'naviy qiyofasini, qahramonlar ruhiyatidagi nozik qirralarni va badiiy mahorat sirlarini yoritishdagi mahorati ko'rsatib berilgan.

Asosiy qism .

O'tgan salkam yuz yil mobaynida qodiriyshunoslik o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligining muhim tarmog'i sifatida shakllanib, mustahkam ilmiy yo'nalishga aylandi. Bu davr ichida Abdulla Qodiriy ijodi bilan shug'ullanmagan, uning asarlaridagi yangi qirralarni ochishga intilmagan yoki uning betakror merosidan hayrat va ilhom olmagan o'zbek adibi va olimini topish qiyin. Qodiriy ijodi nafaqat badiiy adabiyot, balki milliy tafakkur rivojida ham beqiyos o'rin egallaydi.

Qodiriy ijodi o'zbek adabiyotida nafaqat yangi badiiy shakl, balki yangi tafakkur ufqlarini ochgan noyob hodisa sifatida baholanadi. Ayniqsa, uning O'tkan kunlar romani orqali milliy adabiyotda roman janriga asos solinishi adabiyotimiz tarixida tub burilish yasadi. Bu asar o'zbek adabiyotini yangi bosqichga olib chiqib,

² Qo'shjonov, M. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 1975

voqelikni tasvirlashda chuqur psixologik tahlil, xarakterlar rivoji va tarixiy ongini ifodalash imkonini yaratdi. Qodiriy ijodining mohiyati shundaki, yozuvchi o'z davrining ijtimoiy-ma'naviy muhitini xalq ruhiyati, orzu-umidlari va milliy qiyofasi bilan uyg'un holda tasvirlay oldi. Natijada uning asarlari nafaqat badiiy, balki nazariy-estetik poydevor vazifasini ham o'tadi. Shu jihatdan Qodiriy ijodi milliy o'zlikni anglashning muhim vositasiga aylandi. Bu hodisani chuqur ilmiy asosda tahlil qilgan olimlardan biri – Matyoqub Qo'shjonovdir. U Qodiriy ijodini milliy romanchilik maktabining poydevori sifatida baholab, yozuvchining badiiy mahoratini har tomonlama ochib beradi. Uning "O'zbekning o'zligi" asari aynan shu jihati bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib, unda Qodiriy romanlari milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalq ruhiyati nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Olimningning eng katta yutuqlaridan biri shundaki, u Qodiriy qahramonlari – Otabek va Kumush obrazlarini alohida emas, balki asarning umumiy kompozitsiyasi va ruhiy tizimi bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Ularning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va qarama-qarshiliklari voqealar rivoji bilan uzviy uyg'unlikda ochib beriladi. Bu esa yozuvchining psixologik tasvir mahoratini yanada yaqqol ko'rsatadi.

Shuningdek, Qo'shjonov Qodiriyning "sir saqlash" san'atiga alohida e'tibor qaratadi. Uning fikricha, voqealarni sirli tarzda bayon etish qahramonlarning ichki dunyosini ochishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu usul keyinchalik Oybek va Abdulla Qahhor kabi yozuvchilar ijodida ham davom etganini olim alohida ta'kidlaydi. Qodiriyning badiiy mahorati yana bir necha muhim jihatlar orqali namoyon bo'ladi. Birinchidan, yozuvchi voqealarni zanjirband holda, ichki mantiqqa asoslanib rivojlantiradi. Ikkinchidan, psixologik tahlil chuqur bo'lib, qahramonlarning tashqi harakati ularning ichki kechinmalarini ochishga xizmat qiladi. Uchinchidan, xalqona til, iboralar va maqollarning mohirona qo'llanishi obrazlarni yanada jonli va hayotiy qiladi.

Qo'shjonov talqinida yana bir muhim jihat – Qodiriy ijodida hayotiylik va idealizm uyg'unligidir. Yozuvchi o'z qahramonlarini mukammal ideal darajaga ko'tarmaydi, balki ularni hayotiy ziddiyatlar ichida tasvirlaydi. Bu esa realizm

tamoyillarining yorqin ifodasi bo'lib, o'zbek adabiyotida yangi badiiy tafakkur bosqichini boshlab beradi.

Qodiriy romanlarida tarixiylik alohida ahamiyatga ega. Biroq yozuvchi tarixni shunchaki voqealar ketma-ketligi sifatida emas, balki xalq ruhiyatini ochib beruvchi badiiy vosita sifatida talqin qiladi. Masalan, "O'tkan kunlar" romanida XIX asr o'zbek jamiyatidagi siyosiy va ijtimoiy ziddiyatlar shaxsiy taqdir, muhabbat va oilaviy munosabatlar bilan uyg'un holda tasvirlanadi. Natijada tarixiy voqealar millat taqdirining badiiy ifodasiga aylanadi. Qo'shjonov bu jarayonni ikki bosqichda izohlaydi: birinchisi – tarixiy voqealarning asarda aks etishi, ikkinchisi esa – ular orqali xalqning ruhiy holati va milliy ongining ochib berilishi. Shu jihatdan Qodiriy romanlari nafaqat tarixiy, balki ma'naviy-estetik qiymatga ega asarlar sifatida baholanadi.³

Qodiriy ijodining yana bir muhim tomoni – Sharq mumtoz an'analari bilan G'arb romanchilik tajribalarini uyg'unlashtira olganidadir. Bu uyg'unlik keyingi avlod yozuvchilari ijodida davom etib, o'zbek adabiyotining global adabiy jarayonlar bilan hamohang rivojlanishiga zamin yaratdi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Qodiriy ijodi o'zbek adabiyotida tub burilish yasagan, milliy romanchilik maktabining shakllanishiga mustahkam asos bo'lgan beqiyos badiiy merosdir. Uning asarlari orqali o'zbek adabiyoti yangi bosqichga ko'tarilib, voqelikni tasvirlashda chuqur psixologizm, tarixiy ong va ijtimoiy tafakkur uyg'unligi qaror topdi. Ayniqsa, O'tkan kunlar romani milliy adabiyotimizda nafaqat yangi janrni boshlab berdi, balki xalqning ruhiy olamini, orzu-intilishlarini va tarixiy taqdirini badiiy jihatdan yuksak darajada ifodalash imkonini yaratdi.

Matyoqub Qo'shjonovning ilmiy izlanishlari esa Qodiriy ijodining mohiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Olim yozuvchining badiiy mahoratini xarakter yaratish san'ati, voqealarni ichki mantiq asosida zanjirband rivojlantirish, psixologik tahlilning chuqurligi hamda tarixiylik va milliylik

³ Qo'shjonov M. O'zbekning o'zligi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994. – 128 b.

uygʻunligida koʻradi. Shu orqali u Qodiriy asarlarining nafaqat adabiy, balki falsafiy va maʼnaviy ahamiyatini ham ochib beradi.

Shuni alohida taʼkidlash joizki, Qodiriy ijodi milliy oʻzlikni anglash jarayonida muhim oʻrin tutadi. Uning qahramonlari – oddiy badiiy obrazlar emas, balki xalq ruhiyatining, milliy xarakter va qadriyatlarning jonli ifodasidir. Yozuvchi tarixiy voqealarni shunchaki tasvirlash bilan cheklanmay, ularni xalqning ichki kechinmalari, ijtimoiy muammolari va maʼnaviy izlanishlari bilan bogʻlaydi. Natijada uning asarlari kitobxonni nafaqat oʻtmish bilan tanishtiradi, balki oʻzligini anglashga, milliy qadriyatlarni qayta kashf etishga undaydi.

Bundan tashqari, Qodiriy ijodining ahamiyati shundaki, u Sharq mumtoz adabiy anʼanalari bilan Gʻarb romanchilik tajribalarini uygʻunlashtirib, oʻzbek adabiyotini jahon adabiy jarayoniga yaqinlashtirdi. Bu esa keyingi avlod yozuvchilari uchun mustahkam ijodiy maktab vazifasini oʻtadi. Uning badiiy uslubi, tasvirlash mahorati va ruhiy tahlil chuqurligi bugungi kunda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan.

Umuman olganda, Qodiriy ijodi – bu nafaqat adabiy yutuq, balki millat ruhini aks ettiruvchi, tarixni badiiy tafakkur orqali anglatib beruvchi va insonni oʻzligini anglashga yetaklovchi buyuk maʼnaviy kuchdir. Matyoqub Qoʻshjonov tahlillari esa ushbu buyuk merosning ichki qatlamlarini ochib berib, Qodiriy ijodining haqiqiy qiymatini yanada yuksak darajada namoyon etadi.

Shu bois, Qodiriy sehri – bu faqat badiiy mahorat emas, balki millat qalbini his qilish, tarixni sanʼatga aylantirish va oʻzlikni anglash sari yoʻl ochuvchi bebaho adabiy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Qo‘shjonov, M. . O‘zlikning o‘zligi.– Toshkent: Abdulla Qodiriyning tasvirlash san`ati, 1994–128 b.
2. Qo‘shjonov, M. Badiiy tafakkur va adabiy tanqid. – Toshkent: Fan, 1971.
3. Qo‘shjonov, M. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 1975.
4. Qo‘shjonov, M. Cho‘lpon va davr.–Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989.
5. Qo‘shjonov, M. Adabiyot nazariyasi masalalari. – Toshkent: Universitet, 1983.
6. G‘aniyev, A. O‘zbek adabiyotshunosligi tarixi. – Toshkent: Universitet, 2001.